

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI
KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	2050TIIN*Familiya Ism (Viloyat) *JAVOBLAR
Namuna: 2050TIIN*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
Izoh:	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida O',G' harflari qatnashsa ularni o'rniga U va G harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. 22.06.2019-23.06.2019	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat 21:00 gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni @repetitsiontestuz kanalida soat 22:00 e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBII

BLOKLAR:

Biologiya (3.1)
Kimyo (2.1)
Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

BIOLOGIYA

1. O'pka orqali(a), jabra orqali(b), o'pka va traxeya orqali(c), traxeya orqali(d) nafas oladigan bo'g'imoyoqli hayvonlarni juftlab ko'rsating?
1)dafniya; 2)chayon; 3)mita; 4)midiya; 5)qoraqurt;
6)eshakqurt; 7)tut ipak qurti; 8)biy; 9)bit;
10)baqachanoq; 11)daryo qisqichbaqasi;
12)suv chillig'i; 13)butli o'rgimchak
A) a-2; b-6,11; c-8,13; d-5,7
B) a-12,2; b-4,10,11; c-5,13; d-3,9
C) a-2,12; b-4,6,10,11; c-5,8,13; d-3,7,9
D) a-2; b-1,6; c-5,8; d-9,7
2. Yomg'ir chuvalchangi qon tomirlari haqida to'g'ri malumotni aniqlang. 1) tananing oldingi tomoniga qon o'tkazuvchi yirik qon tomiri qorin qon tomiri bilan tutashgan; 2) tananing oldingi tomoniga qon o'tkazuvchi yirik qon tomir qizilo'ngach atrofidagi muskulli halqa qon tomirlar bilan tutashgan; 3) tananing orqa tomoniga qon o'tkazuvchi yirik qon tomir kapilyarlar orqali orqa qon tomir bilan tutashgan; 4) doim namlanib turadigan teridan kapilyar tarkibidagi kislorod atmosferaga osongina o'tkaziladi; 5) teri sirtiga yo'nalgan tomirlarda kislorodning konsentratsiyasi yoqori bo'ladi; 6) ichaklarda hazim bo'lgan ovqatning kerakli qismi shu joydagi kapilyarlar qon tomirlarga so'riladi.
A) 3,4,5 B) 1,2,6 C) 1,3,6 D) 2,4,6
3. Cho'chqa tasmasimon chuvalchangida 4 ta so'rg'ichining bo'lishi, ichak bo'lmashgi nerv sistemasi soda tuzilganligi, harakatlanish deyarli yo'qligi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?
A) idioadaptatsiya, biologik regress
B) biologikprogress, aromorfoz
C) biologik progress, umumiy degeneratsiya
D) umumiy degeneratsiya, biologik regress
4. Bir mavsumda 3-4 marta o'rib olinadi, 300-450 s/ga yashil massa beradigan yem-xashakbop o'simlikni qaysi o'simliklar duragaylash orqali olingan
A) bug'doy bilan g'umay;
B) bug'doy bilan bug'doyiq;
C) g'umay bilan javdar;
D) bug'doy bilan javdar;
5. Yaxshi o'sgan bir tup achambiti o'simligidagi jami urug'larni hosil qilishda ishtirok etgan mikrosporalar hujayralari sonini aniqlang?
A) 70000 B) 560000 C) 350000 D) 210000
6. Geteratrof oziqlanuvchi eukariot(a) va prokariot(b) organizmlarni aniqlang.
1.shumg'iya 2. pichan bakteriyasi 3.olingugurt bakteriyasi 4. agrobakterium 5.zarpechak 6.temir bakteriyasi 7.burga 8. xrokok
A) a-1,7 b-4,6 B) a-1,5 b-2,4
C) a-1,5 b-3,6 D) a-4,5 b-3,8
7. Tovuqlarda k geni X xromosoma bilan birikkan bo'lib, X^kX^k va X^kY holatda letal xususiyatga ega, jo'jalar tuxumdalik davrida nobud bo'ladi. Normal tovuq va xo'rozlar chatishtirilganda avlodning bir qismi tuxumdan ochib chiqmadi. Tuxumdan ochib chiqqan 120 ta jo'janing qancha qismi urg'ochi, qanchasi erkak?
A) 1/3 qismi urg'ochi, 2/3 qismi erkak
B) 2/3 qismi urg'ochi, 1/3 qismi erkak
C) 1/2 qismi urg'ochi, 1/2 qismi erkak
D) 3/4 qismi urg'ochi, 1/4 qismi erkak
8. Antibiotik(a), ferment(b), pigment(c) larni juftlab ko'rsating
A) a-fitotoksin, b-entrikinaza, c-pektin
B) a-interferon, b-pepsin, c-karotin
C) a-fitoalaksin, b-tripsin, c-kapsid
D) a-fitoalaksin, b-tripsin, c-karotin
9. DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog'i bor, qo'shni nukleotidlar orasi 0,34 nm ga teng. Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlar o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK ning bitta zanjirida 209 ta fosfodiefir bog'lari bo'lsa va adenin nukleotidlari DNK ning qo'sh zanjiridagi jami nukleotidlarning 20% ini tashkil etsa, DNK reduplikatsiyasi uchun nechta guanin nukleotidlari kerak bo'ladi?
A) 42 ta B) 63 ta C) 126 ta D) 84 ta
10. Qo'shimcha ildizli magnoliyasimonlarga mansub o'simlik?
1) qulupnay; 2) ajriq; 3) xrizantema; 4) qizilmiya; 5) makkajo'xori; 6) olg'i; 7) zuhrasoch
A) 3,1,4 B) 4,5,6 C) 1,5,7 D) 1,2,5
11. Biopolimerlar qatoriga xos bo'lmagan moddalar keltirilgan javobni toping.
A) DNK, RNK, oqsil
B) Icraxmal, kletchatka, oqsil
C) glukoza, glitserin, yog'
D) kletchatka, oqsil, DNK
12. Katta yoshli sog'lom odamdagi qaysi doimiy tishlar sonining o'zaro nisbati 3:1 ni tashkil qiladi?
A) qoziq tishlar va kurak tishlar
B) katta oziq tishlar va qoziq tishlar
C) qoziq tishlar va kichik oziq tishlar
D) qoziq tishlar va aql tishlar
13. 20 yoshli sog'lom qiz bolaning yuqori jag'ining o'ng tomoni va pastki jag'i chap tomoniga xos tish formulasini aniqlang.
A) 3-2-1-2; 2-1 -2-3 B) 2 x 3-2-1-2
C) 2-1-2-3; 3-2-1-2 D) 2 x 2-1-2-2
14. Odamni hazm tizimida yashaydigan bakteriyalar ishlab chiqadigan vitaminlarni belgilang.
A) B₁₂, K, PP B) B₃, B₆, B₉
C) B₉, K, PP D) B₃, K, B₆,
15. Tillaqo'ng'izlar, tugmacha qo'ng'izlar, qovoqari, tukliari, ko'pgina kapalaklar, "do'st- dushman" ko'ziga yaqqol tashlanib turishi evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga va qaysi holatiga misol bo'ladi?
1) biologik progress; 2) biologik regress;
a)aromorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya.
A) 2-a B) 2-c C) 1-b D) 1-c
16. Tovuq oyog'ida patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulyativ dominant genlarga bog'liq. Agar genotipda ulardan bittasi bo'lsa ham tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi. Polimer genlar retsessiv holatda bo'lsa, pat rivojlanmaydi. Oyog'ida pati bor tovuq oyog'ida pati yo'q xo'roz bilan chatishtirilganda F₁ da 120 ta digeterozigota parranda, F₂ da 6400 ta parranda olingan. F₂ avlodning nechitasi keyingi avlodda genotip bo'yicha ajralish bermaydi?
A) 400 B) 1050 C) 4800 D) 1600
17. Shimpanze tanasi hujayralaridagi xromosomalar soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
a)ovogenezning o'sish davri yakunidagi hujayra; b) yetuk qon plastinkalari; c) urug'lanish davridagi tuxum hujayra pronukleusi; d) spermatogenezning ko'payish davri yakunidagi hujayralar; e) bachadon devori muskul hujayralari; f) urug'langan tuxum hujayra tarkibidagi spermatozoid pronukleusi; g) gametogenezning yetilish davri yakunidagi hujayra.
A) a - 48; c - 24; d - 48; e - 48; f - 24; g - 24
B) a - 96; c - 24; d - 48; e - 48; f - 24; g - 24
C) a - 96; b - 48; c - 48; d - 48; e - 48; f - 48; g - 24

- D) a - 48; c - 24; d - 96; e - 24; f - 24; g - 24
18. Quyida keltirilgan organizmlar zigotasining hosil bo'lish usuliga ko'ra juftlang.
1)ulotriks; 2)achitqi zamburug'i; 3)funariya yo'sini; 4)gidra; 5)oq po'panak zamburug'i
a)xivchinsiz hujayra + xivchinli hujayra;
b)xivchinli hujayra + xivchinsiz hujayra;
c)xivchinsiz hujayra + xivchinli hujayra
A) a-4; b-5; c-2 B) a-3; b-1; c-2
C) a-4; b-1; c-3 D) a-3; b-1; c-4
19. MAB dasturining asosiy vazifalarini aniqlang.
1)zararkunandalarga qarshi kurashning biologik usullarini kashf qilish;
2)organizmlar guruhlarining muhit omillari bilan munosabat qonuniyatlarini o'rganish;
3)hozirgi inson faoliyatini kelajakda qanday oqibatlariga olib kelishini;
4)biosfera boyliklaridan foydalanish;
5)sanoat korxonalarida chiqindisiz texnologiyani joriy etish;
6)biosfera boyliklarini muhofaza qilish;
7)tabiatda kechayotgan jarayonlarni boshqarish yo'llarini o'rganish
A) 1,3,5,7 B) 1,2,3 C) 3,4,6 D) 2,4,6
20. Changchilari tojibarglari hosil qilgan nayda joylashgan navlarni ko'rsating.
A) Sanzor, Ulug'bek-600, Omad
B) Nimrang, Samarqand, Obidov
C) Toshkent-1, Omad, Buxoro-34
D) Daroyi, Obidov, Omad
21. Butli o'rgimchak ikkinchi juft og'iz a'zosining yurish oyoqlaridan farqini aniqlang?
A) yurish oyoqlari birmuncha kaltaligi
B) tuyg'u vazifasini bajaradi
C) bo'g'imlarga bolinganligi
D) ta'm bilish vazifasini bajaradi
22. Bir juft noallel genlar bilan ifodalanuvchi bitta belgisi bilan keskin farq qiluvchi ikki organizm o'zaro chatishtirilgandan so'ng F_2 da fenotipik nisbat 1:4:6:4:1 bo'lsa, ushbu chatishtirishda F_2 dagi avlodning necha foizi genotip jihatdan birinchi avlod duragaylariga o'xshash bo'ladi?
A) 25% B) 93,75% C) 6,25% D) 75%
23. Getratrof oziqlanuvchi eukariod(a) va prokariot(b) organizmlari aniqlang.
1.shumg'iya 2. pichan bakteriyasi 3.agrobakterium 4. refleziya 5.temir bakteriyasi 6.nintella 7.floks 8.devpechak
A) a-6,8 b-3,5 B) a-4,1 b-2,3
C) a-1,7 b-2,5 D) a-6,7 b-3,5
24. Stabillashtiruvchi tanlanish natijasida qanday o'zgarish sodir bo'ladi?
A) o'zgargan individlar saqlanib qoladi;
B) mutatsiyada ega bo'lgan turlar ko'payadi
C) farqlanuvchi ikki xil individlar guruhi uchraydi;
D) o'zgaramagan individlar saqlanib qoladi;
25. Halqali aminokislatalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang
A) gistidin, arginin: B) prolin, oksiprolin:
C) treonin, treozin: D) glitsin, fenilalanin:
26. Gastrulatsiyasi tashqi muhida boruvchi organizmlarni aniqlang.
1.pavituxa 2.triton 3.manta 4.chayon 5.salamadra 6.timsoq 7. tikandum 8.kakku
A) 1,2,5 B) 2,8,4 C) 3,4,7 D) 1,3,7
27. Qo'g'a o'simligi uchun xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) mevasi qanotchali, suv yordamida tarqaladi; 2) mevasi shamol yordamida tarqaladi;

3) kserofit o'simlik; 4) hayotiy shakli o't; 5) to'qaylarda tarqalgan;6)namsevar o'simlik.

A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5
C) 1, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6

28. Qo'l suyaklarida tuzilishiga ko'ra qanday suyaklar uchramaydi?

A) kalta g'ovak B) ponasimon
C) kalta naysimon D) yassi

29. Interkinez davri interfazadan farq qilib....

A) DNK reduplikatsiyalanmaydi;
B) RNK ikki xissa ortadi;
C) uzoq davom etadi;
D) oqsil sintez qilinadi;

30. Duplikatsiya(a) va reduplikatsiya(b) ga xos xususiyatni aniqlang.

1.xromasomaning o'rta qismini ortishi 2.xromasomaning ayrim qismini ortishi 3.DNK bo'lagini ikki hissa ortishi 4. DNK genomining ma'lum joyga kiritish
A) a-2 b-3 B) a-2 b-4
C) a-4 b-1 D) a-3 b-2

KIMYO

31. XeF_6 suv bilan 1:1 mol nisbatda ta'sirlashishi natijasida ksenonning sp^3d^2 gibridlangan birikmasi va HF hosi bo'ladi. Hosil bo'lgan Xe li birikmasining jami bog'lar yig'indisini aniqlang.
A) 10 B) 8 C) 12 D) 6

32. Quyida berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi? a) ortadi; b) kamayadi

$NH_3 \xrightarrow{1\ 1} H_2O \xrightarrow{2\ 2} HF \xrightarrow{3\ 3} CH_4$

A) 1b, 2a, 3b B) 1a, 2a, 3b
C) 1a, 2b, 3a D) 1b, 2a, 3a

33. 200 g 32% li $CuSO_4$ eritmasi grafit elektrodlar yordamida to'liq elektroliz qilindi. Katodni to'liq eritish uchun 500 g 78,4% li sulfat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Bunda hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 47,06 B) 16,5 C) 36,7 D) 25

34. Tarkibida Cu, Al, Zn, Mg saqlagan 252 g qotishmaga NaOH eritmasi ta'sir ettirilganda 112 l (n.sh.da) gaz ajraladi va 68 g qoldiq erimay qoladi, huddishunday massali namunaga HCl ta'sir ettirilganda 145,6 l (n.sh.) da gaz ajraladi va eritmada qoldiq qoladi. Qotishma tarkibidagi Zn massasini aniqlang?
A) 56 B) 130 C) 108 D) 54

35. $HCl_{(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow Cl_{2(g)} + H_2O_{(g)}$ sistemada moddalarning muvozanat holatidagikonsentratsiya(mol/l)lari mos ravishda 5, 2,2 va 5 ga teng. Sistemaga ma'lum miqdor kislorod qo'shilgandan keyin, vodorod xlorid va xlorlarning yangi muvozanat konsentratsiyalari o'zaro teng bo'lsa, O_2 va H_2O larning yangi muvozanat konsentratsiyalari yig'indisini aniqlang. (reaksiya 11 hajmli idishda olib borilgan)
A) 10 B) 26,5 C) 50 D) 56

36. KOH ning qaynoq eritmasi orqali xlor gazi o'tkazilganda hosil bo'lgan eritma bug'latildi va katalizator ishtirokida qizdirish davom ettirildi. Hosil bo'lgan aralashma tarkibida 0,05 mol $KClO_3$ va 0,55 mol KCl bo'lsa, $KClO_3$ ning parchalanish unumini (%) toping.
A) 50 B) 60 C) 25 D) 10

37. Harorat 10°C ga oshganda reaksiya tezligi 2 marta ortsa, ushbu reaksiya harorati 40°C dan 100°C gacha kotarilganda, reaksiya tezligi necha marta ortadi?
A) 64 B) 16 C) 4 D) 8
38. 12 ml HNO₃ eritmasi (pH=2) orqali necha amper tok bilan 16,08 soat davomida elektroliz qilinganda
0,1 M li eritma hosil bo'ldi.
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4
39. A elementining nisbiy atom massasi B element ning nisbiy atom massasidan 3,25 marta kam bo'lsa, A va B elementlarning nisbiy atom massalari farqi 36 g ga tengligini bilgan holda A va B elementlardan hosil bo'lgan birikmaning ekvivalent massasini aniqlang? A element II valentli.
A) 25,33 B) 17,33 C) 40,75 D) 50,66
40. **Murakkab efirga ammiak ta'sir ettirilganda kislota amidi hosil bo'ladi. Ushbu reaksiyada 33,3 g murakkab efirdan 14,4 g karbinol hosil bo'lgan bo'lsa, efirni aniqlang.**
A) metilasetat B) etilasetat
C) metilformiat D) etilformiat
41. CaCO₃ va Ca(OH)₂ dan iborat aralashma doimiy massaga qadar qizdirilgandan keyin qoldiq massasi dastlabki aralashma massasining 60% ini tashkil qildi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 74,6; 25,4 B) 45,5; 54,5
C) 31,8; 68,2 D) 79,7; 20,3
42. Alken xlor bilan ta'sirlashib 12,7g dixloralkanni, brom bilan ta'sirlashib 21,6g dibromalkanni hosil qilsa, alkenni tarkibidagi sp³ gibrid orbitalar sonini aniqlang.
A) 16 B) 8 C) 4 D) 12
43. **NO₂, alken va aromatik uglevodoroddan iborat aralashma bor. Moddalar mos ravishda 6:3:1(mol) nisbatda aralashirilganda ularning atomlari soni o'zaro teng bo'ladi. 2 mol shunday aralashmadagi uglerod atomlari sonini aniqlang.**
A) 3,25 · 10²⁴ B) 2,65 · 10²⁴
C) 2,4 · 10²⁴ D) 1,69 · 10²⁴
44. **A_(g) + B_(g) ↔ 2C_(g) sistemada boshlang'ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat (Km=4) qaror topgandan so'ng A moddaning konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.**
A) 2 B) 4 C) 1,5 D) 2,5
45. 0,5 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 11,2 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperature ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organic mahsulot bilan 34:55 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislota 1 moli tarkibidagi sp³-gibridlangan orbitalar sonini aniqlang.
A) 12 B) 16 C) 4 D) 8
46. Popov qoidasiga ko'ra, 5-metilgeksanon-3 oksidlanishida qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) sirka kislota va 3-metilbutan kislota yoki propion kislota va 2 metil propion kislota
B) chumoli kislota va propion kislota yoki 2 mol sirka kislota
C) chumoli kislota va 2-metilpropion kislota yoki atseton va sirka kislota
D) atseton va propion kislota yoki 2-metilpropion kislota va sirka kislota
47. **xCaCO₃=yCaCO₃ + zCaO + zCO₂ ifoda qanday ma'noni anglatadi?**
A) reaksiyaning qaytarligini
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) reaksiyaning mahsulot unumi 100%dan kichikligini
D) CaCO₃ tarkibida qo'shimchalar borligini
48. **45°C da Na₂SO₄ eritmasida kislorod atomlarining massa ulushi 64% bo'lsa, tuzning shu haroratdagi massa ulushini (%) aniqlang.**
A) 45 B) 50,5 C) 56,8 D) 35,5
49. Na, Mg, Al, Si, P, S, Cl elementlar qatorida nisbiy elektromanfiyligi qanday o'zgaradi?
A) ortib boradi B) kamayadi
C) o'zgarmaydi D) oldin kamayadi, keyin ortadi
50. P_xS_y+80HNO₃→xH₃PO₄+yH₂SO₄+80NO₂+24H₂O
Reaksiyadagi x va y qiymatlarni aniqlang.
A) 4; 11 B) 4; 10 C) 4; 9 D) 4; 7
51. 540 g 40% li eritmada erituvchi (suv) va erigan modda mol nisbati 15:1 bo'lsa, qanday modda eriganligini aniqlang.
A) H₂SO₄ B) saxaroza C) glukoza D) NaOH
52. Tabiiy polimerni ko'rsating.
A) kraxmal B) novolok
C) etilen D) polietilen
53. Azot, azot(II) oksid va azot (IV) oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay qoldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislorod qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi NO₂ ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 75 B) 25 C) 40 D) 50
54. Ma'lum miqdordagi kinovar mo'l miqdorda olingan kuydirilgan oxak bilan qo'shib qizdirilganda 80% unum bilan 4,32 g CaS olindi. Huddi shunday miqdordagi kinovarni to'la yondirish uchun qancha hajm havo talab etiladi? (φ(O₂)= 0,2)
A) 8,4 B) 12,6 C) 16,8 D) 11,2
55. Mol nisbatlari 1,25:1:0,25 bo'lgan is gazi, eten, propen aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan CO₂ geliy gazi bilan aralashtirildi. Bunda (D(H₂)=12) 44,8 litr gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Boshlang'ich gazlar aralashmasidagi propenning hajmini (l) toping.
A) 7 B) 28 C) 1,4 D) 5,6
56. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi? NH₃ $\overset{1}{\rightarrow}\overset{1}{\rightarrow}$ HF $\overset{2}{\rightarrow}\overset{2}{\rightarrow}$ CH₄ $\overset{3}{\rightarrow}\overset{3}{\rightarrow}$ H₂O
a) ortadi; b) kamayadi;
A) 1b, 2a, 3a B) 1a, 2b, 3b
C) 1a, 2b, 3a D) 1b, 2a, 3b
57. Bir moldan atsitilen va methanol ta'sirlashganda olingan modda nomini aniqlang.
A) vinilmetilefir B) divinilefir
C) metiletilefir D) vinilformiat
58. Tarkibida 36,12·10²³ ta atomi bor SO₃ suvda eritilganda 45,15·10²³ ta atom tutgan oleum eritmasi hosil bo'ladi. Oleum tarkibini aniqlang.
A) H₂SO₄·3SO₃ B) H₂SO₄·0,5SO₃
C) H₂SO₄·6SO₃ D) H₂SO₄·2SO₃
59. 3d² va 3d⁷ orbitaldagi oxirgi elektronlaridagi qaysi kvant sonlari har xil? J:spin kvant soni
A) Orbital B) magnit
C) spin kvant soni D) Bosh

60. 1/7 g azot oksidi tarkibida 1/15 g azot borligi ma'lum bo'lsa, oksidning ekvivalentini toping
A) 15 B) 7 C) 28/3 D) 14

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Navoiy asariari lug'atida qo'llangan qaysi fe'l bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq ma'nosini ifodalamaydi?
A) bosh tortmoq B) boshdin quymoq
C) to'g'ri javob berilmagan D) bosh olib chiqmoq
62. Yasalishga asos qismi yasama fe'ldan yasalgan so'zni aniqlang.
A) qo'riqchilik B) atama
C) o'ynoqiliging D) qiynog'i
63. Qaysi qatorda takrorlash va juftlash orqali hosil bo'lgan yangi so'zlar berilgan?
A) tun-kun, sira-sira, erta-indin, el-u yurt
B) uzil-kesil, nari-beri, yildan yilga, o'z-o'zidan
C) kirdi-chiqdi, birma-bir, aql-zakovat
D) savol-javob, bog'-rog', yugur-yugur
64. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad –milliy o'zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida nechta so'zda tovush almashishi yuz bergan?
A) tovush almashishi yuz bermagan B) 3
C) 2 D) 1
65. So'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lgan gapni toping?
A) Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.
B) Qadr bilmas qarindoshdan, qadr qilgan yod yaxshi.
C) Har qadamda xalqob bo'lib yotgan ko'lmaklar yerga singib ariqlardagi loyqalar tina boshladi.
D) Ot chopsa, gumberlar tog'ning darasi
66. Bir necha ergash gapli qo'shma gap qismlari yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?
A) ikki nuqta B) nuqtali vergul
C) tire D) vergul
67. Nechta so'zda nuqtalar o'rniga chuqur til orqa undoshi yoziladi?
...avotir, ...alacho'p, ...okandoz, ...ayol, ...atti-harakat, ...ohlamoq
A) 3 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta
68. Buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma Rasmiy uslubning qaysi turiga mansub?
A) sof qonunchilik uslubi
B) diplomatik uslub
C) idoraviy devonxona uslubi
D) sof tadbirkorlik uslubi
69. Qaysi gapdagi sodda yasama fe'l ko'chma ma'noda?
A) Opam hammamizni yaxshilab tuzladi.
B) Dunyoda pok odamlar qancha ko'paysa, nopok odamlar shuncha kamayadi.
C) Bir-birimiz bilan eski qadrdonlardek suhbatlashdik.
D) Negadir domla uzoq vaqt gapni cho'zib turdi.
70. Egasi umumlashgan gapni belgilang.
A) Vazifani vijdonan bajarish kerak.
B) Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma.
C) O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar.
D) Bilmaganni so'rab o'rganmoq lozim.
71. «Tarqaldi, ketdi» ma'nosini bildiruvchi eski o'zbek adabiy tiliga xos so'z qaysi qatorda berilgan?
A) ko'kramak B) ortturdi
C) butradi D) teyu bildi

72. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
xanuz, xiylakor, hushyor, hijjalamoq, nomoyon
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
73. Quyidagi bog'lanishlarning qaysi biri bitishuvli birikma hosil qila oladi?
1) son+ot: 2) sifatdosh+ot: 3) ot+ot: 4) olmosh+ot:
A) 3, 4 B) faqat 3
C) faqat 4 D) 1, 2, 3, 4
74. Gapning egasi ajratilgan gapni toping
A) Biz - hammamiz, bir oilaning bolasimiz
B) Uzoqdan otliqlarning-Alisher va uning hamrohlarining-qorasi ko'rindi
C) Bu xabar ko'plarni, shu jumladan Mahkamni ham, juda quvontirdi
D) Paxtakor o'zbekman-zabardast, mag'rur
75. Quyidagi murakkab qo'shma gap turini aniqlang.
Odam yurakdan qaynab kulsa, sog'ligi yaxshilanadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi.
A) aralash murakkab qo'shma gap
B) bir necha gapli ergash gapli murakkab qo'shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
76. Budun, ko'ch, yag'i so'zlari hozirgi o'zbek tilida qanday nomlanadi?
A) osmon, yuk, yov B) xalq, urug', yov
C) olam, yuk, bog' D) xalq, ko'chmoq, dushman
77. Qaysi uslubda fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi.
Atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohladi?
A) rasmiy so'zlashuv uslubi
B) sof ilmiy uslub
C) ilmiy ommabop uslub
D) sof qonunchilik uslubi
78. Fellarning vazifa shakli qo'shimchalari fe'lning qaysi lug'aviy shaklini hosil qilganda bir unli tovush boshqasiga aylanishi mumkin?
A) Ravishdosh va sifatdosh
B) Ravishdosh, sifatdosh va sifat nomi.
C) Harakat nomi
D) Ravishdosh
79. 1) tilla, tish; 2) masala, yechmoq; 3) o'rtoqlar, suhbatlashmoq; 4) quvnoq, yashamoq; 5) shahrimiz, ko'chalar; 6) Salima, ko'rishish; 7) siyoh, bo'yamoq; 8) qizil, olma. Berilgan so'z juftliklarining qaysilaridan bitishuv hosil qilish mumkin?
A) 1, 2, 4, 8 B) 1,4,8
C) 2, 3, 6, 7 D) 5, 6
80. Odamlarning ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroning uni yoshidan qat'i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish, bizni eng samarali yo'limizdir. Berilgan gapda noo'r'in qo'llangan tushum va qaratqich kelishiklarining sonini toping.
A) 3 o'rinda tushum, 3 o'rinda qaratqich kelishigi
B) 2 o'rinda tushum, 1 o'rinda qaratqich kelishigi
C) 3 o'rinda tushum, 1 o'rinda qaratqich kelishigi
D) 3 o'rinda tushum, 2 o'rinda qaratqich kelishigi
81. U o'z vataniga muhabbatni va yurt taqdiri haqida yozilgan fikrlarni, falsafiy-badiiy mushohadalarni she'riy satrlarda ushbu to'plamga jamlagan.
Ushbu gapdagi moslashuv usuli bilan bog'langan tobe bog'lanishlar sonini toping.
A) 5 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 1 ta
82. "Susambil" ertagida eshakka Susambilga borishda hamrohlik qilgan jonivorlarni tartib bilan sanang.

- A) Ho'kiz, xo'roz, kalamush, arilar
B) Xo'roz, kalamush, ho'kiz, arilar
C) Xo'roz, ho'kiz, kalamush, arilar
D) Arilar, kalamush, ho'kiz, xo'roz
83. T.To'laning balet librettosini toping
A) "Momoyer" B) "Qizbuloq"
C) "Zulmatdan ziyo" D) "Samarqand afsonasi"
84. Xayriddin Salohning qaysi she'rida "Nonning lazizligiga tandirdagi olov sababchiligi bilan insonning azizligiga to'kilgan manglay teri bois ekani borasidagi parallel" tasvirlar uchraydi?
A) "Yulduzlar afsonasi"
B) "Yulduzlar haqida ertak"
C) "Ko'krak ochdim shamollarga"
D) "Yer va ter"
85. "Qisasi Rabg'uziy" asarida aytilishicha "insonning ichini yondiruvchi, uni tubanlikka boshlovchi va yuzini qora qiluvchi o't" nima?
A) hasad B) johillik
C) kibr D) axloqsizlik
86. "Avesto"da qurbonlik qilinadigan joy nima deyiladi?
A) Vendidod B) Otashgoh
C) Opoxtor D) Parastishgoh
87. "Boburnoma"da "Purshar va sho'r yerlar edi, turk va mo'g'uldin ulus anda yig'ilib edilar",- deb qayer ta'riflanadi?
A) Qarshi, G'azna B) Andijon, Qo'qon
C) Buxoro, Kobul D) Kobul, G'azna
88. Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi kim bo'lgan?
A) Kul tigin B) Bilga xoqon
C) Yo'llug' tigin D) To'nyuquq
89. "Kuntug'mish" dostonida kimning laqabi Qilichxon edi?
A) Go'ro'g'li B) Qoraxon
C) Avliyoyi Qoraxon D) Buvraxon
90. «Kun va tun» chistonidagi «ko'rmagan» - «sig'magan» qofiyasidagi qaysi tovush raviiy?
A) «o» unlisi. B) «a» unlisi.
C) «d» undoshi. D) «n» undoshi.